



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



No7
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 418 sahifa,
1-iyul, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Umarova H. O'. – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti rektori

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor

G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)

Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston

Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi

o'rinbosari

Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Umarova H. O'. – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Rector of the Nizami National Pedagogical University of Uzbekistan

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G' B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhomdov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

| | |
|--|-----|
| Konvergent tahririyat mas'uliyati: Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonini yoritish tendensiyalari | 16 |
| Doniyorov Salim Musurmonovich | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijodiy bilimlarini shakllantirish..... | 23 |
| Nazarov Odil Omanqulovich | |
| "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"da ijtimoiy-pedagogik hamkorlikning o'rni | 27 |
| Abirova Umida Nazarovna | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarda uchraydigan nutq nuqsonlarini oldini olish va uning ahamiyati..... | 30 |
| Akramov Dostonbek Ikromjon o'g'li | |
| Pedagogik jarayonda axloqiy qarashlarni shakllantirish usul va vositalari | 34 |
| Xudoykulova Shaxlo Mamaniyozovna | |
| Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining ijodkorligini rivojlantirishda ta'limiy o'yinlarning ahamiyati | 38 |
| Salimova Dilmira Farxodovna | |
| Aholining iqtisodiy axborot savodxonligini oshirishdagi muammo va kamchiliklar | 41 |
| Rajabov Asliddin Xolmirzayevich | |
| Favqulodda vaziyatlar yo'nalishi ta'limida muloqotning ahamiyati..... | 44 |
| Boltayev Baxtiyor Yunusovich | |
| Biologiya ta'limi va raqamli texnologiyalar | 48 |
| E. Po'latova | |
| Boshlang'ich ta'limga tayyorlov guruhi bolalarini kasbga yo'naltirishda stem yondashuvining ahamiyati ... | 51 |
| Egamova Ravshanoy Surobjonovna | |
| O'zbekiston TIMSS natijalarini qanday yaxshilashi mumkin? Innovatsion ta'lim yondashuvlari va samarali strategiyalar..... | 55 |
| G'ayniddinov Shayxislom Tolibjon o'g'li | |
| Nutq kamchiliklarini bartaraf etishda mutaxassislar hamkorligi | 60 |
| Isayeva Mushtariy Alisher qizi | |
| Developing Student's Critical Skills Through Technology-Enhanced English Lessons | 63 |
| Mavlonova Dildora Shuxrat qizi | |
| Bahrom Ro'zimuhammad she'rlarini o'qitishda integratsiya usulidan foydalanish | 67 |
| Nomozova Dilobar Suyun qizi | |
| Aksiologik yondashuvlar asosida bo'lajak pedagoglarda altruizm ko'nikmalarini shakllantirish: bosqichlar va tamoyillar | 72 |
| Norboyeva Moxigul Shavkat qizi | |
| 3D Modeling of Virtual Chemical Laboratories | 75 |
| Qayumov Jamshid Ma'rufjon o'g'li | |
| Fostering Metacognitive Skills in Efl Learners Through Ai-Supported Instruction: a Review of Recent Literature | 80 |
| Ruzieva Maftuna | |
| Onlayn va gibrid ta'lim sharoitida mashinasozlik texnologiyasi faniga qiziqishni oshirishning nazariy asoslari..... | 85 |
| Sarimsakova Soxibaxon Raxmonjanovna | |
| Loyihalashtirilgan integral darslar samaradorligi (9-sinflar uchun "Metallar va ularning umumiy xususiyatlari" mavzusida)..... | 88 |
| Sharipova Hakima Shavkatovna | |
| Metacognition and Self-Regulated Learning | 92 |
| Turayeva Nazira Ibragimovna | |
| Методические возможности совершенствования обучения научной письменной речи на основе коммуникативно-деятельностного подхода | 95 |
| Меденцева Наталья Петровна | |
| Transformatsion jarayonlarda tibbiyot oliy ta'lim muassasalari raqobatbardoshligini oshirish strategiyalari | 100 |
| Jonibekov Jasur Jonibekovich | |



| | |
|--|-----|
| O'zbek milliy musiqasi: boy madaniyat va san'atning ajralmas qismi..... | 105 |
| Rustamova Maxsuma Farxodbek qizi | |
| Sharq va G'arbda tibbiyot fanlarining yaratilishi tarixi..... | 108 |
| Bakayev Najmiddin | |
| Didaktik o'yinlar bola faoliyatining asosiy vositasi sifatida..... | 112 |
| Egamova Madina Qobil qizi | |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalari talabalarining konvergent-kreativ tafakkurini takomillashtirishning didaktik asoslari..... | 116 |
| Egamova Shukriya Amanovna | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarida universal ta'lim faoliyatlari orqali tarbiyaviy maqsadlarga erishish imkoniyatlari | 119 |
| G'aybullayeva Nafisaxon Nosirjon qizi | |
| Matematika o'qitishning klassik metodlaridan zamonaviy usullariga o'tish | 124 |
| G'ofurov Jamoliddin Xusniddinovich | |
| Jahon miqyosida maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari | 128 |
| Hoshimova Dilnoza Boymirzoyevna, Mahmudova Zulfiya Homidovna | |
| Bo'lajak o'qituvchilarning prognostik kompetensiyasini rivojlantirish tamoyillari..... | 131 |
| Ikromova Munisa Sheraliyevna | |
| Bo'lajak muhandislarni kasbiy tayyorgarligini grafik ma'lumotlar asosida oshirishning didaktik asoslari | 134 |
| Jumanazarova Zuhra Qosimjonovna | |
| Sport va jismoniy tarbiya pedagogikasida innovatsion metodlar | 138 |
| Jumanova Iroda Shokirjon qizi | |
| Boshlang'ich sinf o'quvchilarining mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish | 141 |
| Jumayeva Sarvinoz Ilhombekovna | |
| Talabalarda nutqiy tarkibiy tuzilmalarni shakllantirish texnologiyasi | 145 |
| Kiyamova Maxbuba Sultanovna | |
| Innovatsion yondoshuv asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikrlash qobiliyatini rivojlantirishning amaliy jihatlari | 148 |
| Mamadiyurov Jamol | |
| Ingliz tili matnlarini o'rganishda 6-sinf o'quvchilarining grammatik kompetensiyasini oshirish va tatbiq qilishning samarali usullari..... | 152 |
| Sharipova Firuza Mehriddinovna | |
| Kar va zaif eshituvchi yuqori sinf o'quvchilarining axborot kompetensiyasini rivojlantirish modeli | 155 |
| Tursunov Hojiakbar Hamidullo o'g'li | |
| Maktabgacha ta'limda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim – pedagogik muammo sifatida..... | 159 |
| Xallokova Maksudaxon Ergashevna | |
| Altruistik xulq-atvorning shaxsiy va ijtimoiy determinantlari..... | 162 |
| Xatamova Ferangiz Ibodulloevna | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik mahoratini teatr pedagogikasi vositalari orqali rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi | 166 |
| Xudoyberganova Matluba Qulsoxatovna | |
| Refleksiv yondashuvning ta'lim jarayonidagi o'rni va afzalliklari..... | 170 |
| Yodgorova Gulrux Farhodovna | |
| Совершенство методики формирования компетентности будущих студентов-искусствоведов в условиях цифрового образования..... | 174 |
| Юлдашев Эргаш Сабинович | |
| O'z-o'zini rivojlantirish tushunchasi va uning pedagogik mohiyati..... | 177 |
| Kudenov Temurbek Maxsetbaevich | |
| Boshlang'ich sinf o'qish darslarida hikoya janrini o'qitishda zamonaviy texnologiyalardan foydalanish dolzarb muammo sifatida | 180 |
| Ergasheva Shoxida Nurmuxammadovna | |
| Ingliz tili darslarini interaktiv tashkil etishda raqamli ta'lim vositalarining o'rni va metodik yondashuvlar | 185 |
| Raxmatullayeva Barno Baxtiyor qizi | |
| The Effectiveness of Using Podcasts to Enhance Listening Comprehension and Vocabulary Acquisition in Secondary School English Classes..... | 189 |
| Meliboyev Zuxriddin Isroil ugli | |

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

| | |
|--|-----|
| O'zbekiston tarixi darslarida pedagogik improvizatsiyani texnologiyalashtirish va raqamlashtirish imkoniyatlari | 192 |
| Ergasheva Muhayyoxon G'anijonovna | |
| Tasviriy faoliyat vositasida maktabgacha yoshdagi bolalarning badiiy-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning samaradorligi..... | 196 |
| Arslanova Umidaxon Komiljon qizi | |
| Baxtli pedagoglar sirlari yoki kasbdagi subyektiv farovonlik | 201 |
| Adilova Zulfiya Djavdatovna | |
| Ayollarning siyosiy faolligini oshirishda gender kvotalarining o'rni | 204 |
| Abdukaxorova O'g'iloy Isroiljon qizi | |
| The Content of Developing Students' Communicative Culture Through a Bilingual Approach | 207 |
| Abdukhalilova Feruzakhon Ulugbek kizi | |
| Maktabgacha yoshdagi nutqida kamchiligi bo'lgan bolalar so'zlashuv nutqini shakllantirishda o'yin texnologiyalaridan foydalanish ahamiyati..... | 210 |
| Abdullayeva Ugiloy Djurayevna | |
| Chet tili intellektual va kasbiy rivojlanish kaliti | 214 |
| Aripova Sayida Abdulaxatovna | |
| Raqamli etiket: zamonaviy ta'limda yangi madaniyat talabi | 217 |
| Rasuljon Atamuratov | |
| Raqamli xiyonat: zamonaviy munosabatlar va sodiqlik inqirozi..... | 221 |
| Azizova Shodiya Utkur qizi | |
| Badiiy tarjimada leksik birliklarning lingvomadaniy aspektlari | 224 |
| Mardiyeva Maxbuba Shavkatovna | |
| O'quvchilarda funksional savodxonlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan dasturiy platformani pedagogik loyihalash..... | 228 |
| Obloqulov Sulaymon Maxmayusuf o'g'li | |
| Kurashchilar orasida jarohatlarning oldini olish: reabilitatsiya va profilaktik uslublar | 232 |
| Ochilova Sarvinoz Salim qizi | |
| Xalq og'zaki ijodi vositasida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik-psixologik jihatlari | 236 |
| Oxunova Nozimaxon Mirzag'ulom qizi | |
| Loyiha asosidagi o'qitish orqali yoshlarda liderlik qobiliyatini rivojlantirish usullari..... | 239 |
| Risvayeva Charos Zaydilla qizi | |
| Maktabgacha yoshdagi bolalarga ingliz tilini o'yinlar vositasida o'rgatishga qaratilgan mashq va topshiriqlarning samaradorligi..... | 242 |
| Toshniyozova Dildora, Meliyeva Nargizaxon | |
| Bo'lajak o'qituvchilarni tarixiy va ma'naviy ideallarga aksiologik munosabatini rivojlantirish modeli | 245 |
| Tursunova Dilnoza Adhamjon qizi | |
| Shaxs rivojlanishida pedagogika va psixologiyaning o'rni..... | 248 |
| Umirova Guldon Jamoliddin qizi | |
| Toshkent shahri havosi ifloslanishining sabablari va oldini olish choralari | 251 |
| Ungalov Akmal Navruzovich | |
| Sun'iy intellekt asosida tuzilgan interaktiv platformalar va ulardan foydalanuvchi tajribasi | 254 |
| Xabirova Zulfiya Anvarbekovna | |
| Talabalar ijtimoiy faollik indeksini rivojlantirishda tyutorlik faoliyatining o'rni va ahamiyati | 257 |
| Xamrakulov Jasurbek Muxammadjon o'g'li | |
| Hozirgi davr pedagogikasida sharqona ta'limning ahamiyati..... | 260 |
| Yuldasheva Mastura Islamovna | |
| Пословицы и поговорки как отражение картины мира | 263 |
| Алламбергенова Шахноза Садатдиновна | |
| Raqamlashtirish sharoitida talabalarning mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini rivojlantirishda mustaqil ta'limning o'rni | 268 |
| Abdumannopov Muhammadsahib Muhammadyusuf o'g'li | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kasbiy-kreativ kompetensiyalarini rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlar..... | 272 |
| Khadicha Mukhamadiyeva Karomatovna | |




| | |
|--|-----|
| Zamonaviy didaktik yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning analitik va ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish..... | 277 |
| Mo'minova Gulhayo Turg'unboy qizi | |
| Kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarni tyutorlik faoliyatiga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari | 280 |
| O'rinova Nilufar Muhammadovna | |
| Aholi o'rtasida yoshlarning pedagogik intervensiyalar orqali ilmiy faolligini oshirish va sog'lom turmush tarzini shakllantirish metodikasi..... | 286 |
| Raximov Xasanboy Kamoliddin o'g'li | |
| Buyuk ipak yo'li – yangi geosiyosiy va iqtisodiy aloqalarning tarixiy asosi sifatida..... | 290 |
| Tugalova Madina Erkin qizi | |
| Ilk maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiya..... | 293 |
| Umarova Muyassarxon A'zamjonovna | |
| Rus tilida o'qish ko'nikmalarini rivojlantirishning nazariy-metodik asoslari | 297 |
| Xanova Dilrabo | |
| Didactic Possibilities of Teaching English in Primary Schools Based on 3D Interactive Technologies | 303 |
| Kholiqova Lutfiya Umurzoqovna | |
| Raqamli dasturiy vositalari asosida organik kimyo fanini o'qitish jarayonlarini loyihalashtirish modeli | 306 |
| Ametova Guljamilya Elbrusovna | |
| Talabalarda informatsion-analitik kompetentlikni rivojlantirishning amaliy asoslarini takomillashtirish | 310 |
| Baydjanov Bekzod Xaitboyevich | |
| Aksiologik yondashuv asosida o'quv mashg'ulotlarini tashkil etishning til o'rganish jarayonidagi ahamiyati..... | 314 |
| Choriyeva Feruza Amrullayevna | |
| Ibrayim Yusupovning "Saksovu" she'rini o'qitish metodikasi | 317 |
| Darmenov Allayar Abdilxaq uli | |
| Innovatsion ta'lim sharoitida talabalarning madaniyatlararo kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi.... | 320 |
| Ergasheva Anbar Shaymardan qizi | |
| Oiladagi zo'ravonlik: sabablari, oqibatlari va psixologik yondashuvlar | 324 |
| Jo'rayeva Kaniza Akbarali qizi | |
| Darsda talabalar nutqiy qobiliyatini shakllantirish masalalari..... | 329 |
| Kamoliddinova Maftuna Xusniddin qizi | |
| Nodavlat ta'lim tashkilotlari o'quvchilarida kreativlikni shakllantirishni boshqarish | 334 |
| Nasriddinov Xasan Baxtiyor o'g'li | |
| Nutq nuqsoniga ega bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik aspektlar va pedagogik yondashuvlar ... | 339 |
| Normatova Maftuna Kengash qizi, Kamolova Gulshoda Jobir qizi | |
| Talabalarni ma'naviy tarbiyalash diagnostikasining psixologik va pedagogik manbalardagi talqini | 346 |
| Saotmuratova Zebo Yuldash qizi | |
| OTM talabalarning tanqidiy fikrlashini rivojlantirishning tashkiliy va pedagogik shart-sharoitlari..... | 350 |
| Tokumbetova Mexribonu Shavkat qizi | |
| Ma'naviy yetuklik sari: jadid adabiyotining o'rni..... | 356 |
| Abdullayev Ro'zimuxammad Akramjon o'g'li | |
| Nemis tilida derivatsion leksik birliklarning o'qitishning lingvodidaktik asoslari | 361 |
| Abduraxmanov Sirojiddin Muminkulovich | |
| Bo'lajak o'qituvchilarda baholash madaniyatini shakllantirish: adolatli, obyektiv va motivatsiyalovchi baholashga tayyorlash | 365 |
| Boymirzayev Farxodjon Raxmatjon o'g'li | |
| Maktab ta'limida ko'paytirishning qulay usullari..... | 371 |
| Ergasheva Shahlo Shoabdullo qizi | |
| Sensor integratsiya buzilishlari bolaning nutq, harakat va hissiy rivojlanishiga ta'siri | 375 |
| Isayeva Mushtariy Alisher qizi | |
| Inson jamiyatdagi ish faoliyatida va psixologiyasida sportning o'rni..... | 378 |
| Isoqov Nuriddin Halim o'g'li | |
| Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini integrativ o'qitishga metodik tayyorgarligini takomillashtirish | 382 |
| Jo'rayeva Nargiza Jamolidinovna | |
| Обучение дошкольников иностранному языку в различных видах неречевой деятельности | 386 |
| Марасулова Доно Нигматуллаевна | |

| | |
|---|-----|
| Til o'rgatishda matnning didaktik va kommunikativ ahamiyati | 389 |
| Ungarbayeva Ayman Davletbayevna | |
| Munavvarqori Abdurashidxonov – jadidchilik harakatining ma'rifatparvar yo'lboshchisi | 393 |
| Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi | |
| Dars jarayonida o'quvchilarning tanqidiy fikrlashini shakllantirish | 396 |
| Yulchiyeva Shoxsanam | |
| Особенности использования современных педагогических технологий в преподавании естественных наук в общеобразовательной школе | 399 |
| Мажидова Мадина Фархадовна, Мажидов Шерзод Фархадович | |
| Повышение информационной грамотности и формирование информационной культуры студентов в среде дистанционного обучения..... | 403 |
| Р. К. Аюезова | |
| Воздействие медиа в контексте социального формирования личности..... | 407 |
| Хайдарова Гулинур Нурбек кизи | |
| Теоретические основы развития интеллектуальных способностей студентов | 411 |
| Чинкулова Гулмехра Бахроновна | |



MUNAVVARQORI ABDURASHIDXONOV – JADIDCHILIK HARAKATINING MA'RIFATPARVAR YO'LBOSHCHISI



Xasanboyeva Ruxshona Nurmatjon qizi
Namangan davlat universiteti, Tarix yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Madrahimov

Tarix kafedrası dotsenti, t.f.n.

ORCID: 0009-0006-0995-3635

Annotatsiya: Mazkur maqolada XX asr boshlarida Turkistonda jadidchilik harakatining asoschilaridan biri bo'lgan Munavvarqori Abdurashidxonovning murakkab hayot yo'li, ma'rifiy faoliyati, siyosiy qarashlari va ilmiy merosi tahlil etiladi. Xususan, uning yangi usul maktablarini tashkil etish, darsliklar yaratish, matbuot orqali xalqni uyg'otish yo'lidagi sa'y-harakatlari, sovet tuzumi davridagi fojiali taqdiri hamda mustaqillik yillarida merosining qayta tiklanishi tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar asosida yoritiladi.

Kalit so'zlar: Munavvarqori Abdurashidxonov, "Tarjumon", jadidchilik, "Adibi avval", "Adibi soniy", "Mabda'ul-qiroat", ma'rifatparvarlik, yangi usul maktabi, "Bizning jaholat – jahli murakkab", Turkiston muxtoriyati, siyosiy repressiya, matbuot, pedagogika.

Abstract: This article analyzes the complex life path, educational activities, political views, and scientific legacy of Munavvarqori Abdurashidkhanov, one of the founders of the Turkestan Jadid movement at the beginning of the 20th century. In particular, it highlights his efforts in establishing new-method schools, authoring textbooks, awakening the people through the press, his tragic fate during the Soviet regime, and the restoration of his legacy during the years of independence, based on historical sources and academic literature.

Key words: Munavvarqori Abdurashidkhanov, Tarjumon, Jadidism, Adibi avval, Adibi soniy, Mabda'ul-qiraat, enlightenment, new-method school, Our ignorance – complicated by anger, Turkestan autonomy, political repression, press, pedagogy.

Аннотация: В статье анализируется сложный жизненный путь, просветительская деятельность, политические взгляды и научное наследие Мунавваркори Абдурашидханова – одного из основоположников джадидского движения в Туркестане начала XX века. Особое внимание уделяется созданию новометодных школ, авторству учебников, пробуждению народа через прессу, его трагической судьбе в годы советской власти и восстановлению наследия в годы независимости. Анализ основан на исторических источниках и научной литературе.

Ключевые слова: Мунавваркори Абдурашидханов, "Тарджумон", джадидизм, "Адиби аввал", "Адиби соний", "Мабдаул-кираат", просветительство, новометодная школа, "Наше невежество – осложнено гневом", Туркестанская автономия, политические репрессии, пресса, педагогика.

KIRISH

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasida mahalliy aholining milliy o'zligini saqlab qolish, savodsizlikka qarshi kurashish va ma'naviy uyg'onishga erishish yo'lida jadidchilik harakati shakllandi. Ushbu harakatning asosiy shiori – "insonni ilm va ma'rifat bilan ozodlikka olib chiqish" hisoblangan. Aynan shu harakat safiga kirgan yirik siymolardan biri – Munavvarqori Abdurashidxonov edi. Munavvarqori o'z davrining ilg'or ziyolilaridan biri bo'lib, ta'lim, matbuot, siyosat, publitsistika, lug'atshunoslik va pedagogika sohalarida ko'p qirrali faoliyat yuritgan. U jadid maktablarining asoschilaridan biri, adabiy til islohotchisi va milliy mustaqillik g'oyalarining targ'ibotchisi sifatida tarixda chuqur iz qoldirgan ^[1, 5-b.].

Munavvarqori 1878-yil Toshkent shahrining Shayx Xovandi Tahur dahasi, Darxon mahallasidagi taniqli oilada dunyoga kelgan. Unga yaxshi niyatlar bilan padari buzrukvori – madrasa mudarrisi Abdurashidxon Soti-

boldixon Olimxon o'g'li va validayi mehribon, otinoyi Xosiyatxon (1845–1931) “Munavvar”, ya’ni “nurli” va “nur bilan yo'g'rilgan” degan ma'noni anglatuvchi ismni qo'yganlar.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Munavvarqorining otasi Abdurashidxon o'z hovlisida maktab ochib, 40 nafar o'quvchiga dars bergan. Onasi Xosiyatxon ham shu hovlida xotin-qizlarni o'qitib, ularga bilim bergan. 1885-yilda Munavvar 7 yoshga kirganda otasi vafot etadi [2, 5-b.]. Munavvarqori boshlang'ich ta'limni onasidan oladi. Dastlab eski maktabda, keyinchalik esa madrasada tahsil olgan Munavvar arab, fors, rus va turk tillarini mukammal o'rgangan, jumladan, zamonaviy fanlarga ham chuqur qiziqqan [3, 13-b.].

Ayniqsa, jadidchilik harakatining “otasi” sifatida tanilgan Ismoilbek Gaspirali tomonidan Qrimda chop etilgan “Tarjumon” (1883–1914) gazetasi Munavvarqorining millatparvar va xalqchil shaxs sifatida shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatgan. Uning shogirdlaridan biri Laziz Azizzodaning yozib qoldirishicha, inqilob arafasida Turkistonga, xususan Toshkentga Rossiya, Turkiya, Misr, Eron va boshqa sharq mamlakatlaridan ko'plab ilg'or g'oyalarga ega jurnallar, gazetalar va to'plamlar yetib kelgan. Ushbu nashrlar ziyolilar va yoshlar orasida, jumladan madrasalarda, qo'ldan-qo'lga o'tib o'qilgan. Bulardan Munavvarqori Abdurashidxonov ham bahramand bo'lgani shubhasizdir [2, 7-b.].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu ilmiy maqola tarixiy-biografik tahlil metodiga asoslangan bo'lib, unda Munavvarqori Abdurashidxonov faoliyatiga doir ishonchli yozma manbalar, ilmiy adabiyotlar va tarixiy hujjatlardan foydalanildi. Maqola uchun ma'lumotlar asosan monografiyalar, jadidchilik harakatiga oid ilmiy tadqiqotlar, tarjimai holiy manbalar, matbuot materiallari va adibning o'z asarlari asosida tanlab olindi. Tahlil jarayonida kontent-tahlil (mazmuniy tahlil) usuli qo'llanilib, matnlardagi asosiy g'oyalar, qadriyatlar va ijtimoiy-siyosiy pozitsiyalar ajratib olindi. Shuningdek, qiyosiy tarixiy yondashuv orqali Munavvarqori faoliyati boshqa jadidlar bilan solishtirilib baholandi. Arxiv materiallari va adabiy manbalar voqelikni xolis yoritishda asosiy daliliy baza sifatida xizmat qildi. Maqolada faktlar ishonchligi, ularning tarixiy kontekstdagi o'rni va ilmiy qiymati tahlil asosida aniqlab borildi. Ushbu metodologik yondashuv Munavvarqori Abdurashidxonovning o'z davridagi ma'rifiy va siyosiy faoliyatini obyektiv yoritishga xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

1901-yilda Munavvarqori Toshkentda ilk jadid maktabini ochdi. Bu maktabda darslar yangi metod asosida o'tilgan bo'lib, chizmachilik, geografiya, hisob, o'qish, yozish kabi fanlar joriy etilgan. O'quvchilarga darsliklarni u o'zi yozgan: “Adibi avval”, “Adibi soniy”, “Mabda'ul-qiroat” kabi asarlar nafaqat O'zbekistonda, balki boshqa musulmon mintaqalarda ham keng ommalashgan [3, 22-b.].

Munavvarqori faqat erkak bolalarni emas, balki qizlarni ham o'qitish tarafdori bo'lgan. Ayollarni savodli qilish zarurligini matbuot orqali bir necha bor ko'targan. Uning maktablari sovet tuzumiga qadar faoliyat yuritgan [4, 35-b.].

Bu davrda u faqat jadid maktablarini tashkil etish va ularda yoshlarni o'qitish bilan cheklanmay, faol adib, jurnalist, noshir, olim va siyosiy arbob sifatida Turkistondagina emas, balki butun O'rta Osiyo va Rossiya musulmonlari orasida ham katta obro' qozongan. Munavvarqori faoliyatini birinchilardan bo'lib tadqiq qilgan, jadidchilik harakatining bilimdoni, atoqli adabiyotshunos Begali Qosimov bu borada quyidagicha yozadi: “Bu nomni (Munavvarqori Abdurashidxonovni) 30-yillarda Turkiyadagi Mustafo Rashid Poshsho, Ozarbayjondagi Mirzo Fathali Oxundzoda, Qrimdagi Ismoilbek Gaspirali qatoriga qo'ygan edilar” [5, 234–235-b.].

Shuningdek, Munavvarqori xalqni ma'rifatli qilish bilan birgalikda islom dini ta'limotini ham keng yoyishga harakat qilgan. U dastlab o'z mahallasi – Darxondagi masjidda imom-kotib lavozimida faoliyat yuritib, xalqqa islomiy va dunyoviy ilmlarni keng targ'ib qilgan.

Munavvarqori jadid maktablari uchun dastur va darsliklarni ham ilk bor o'zi ishlab chiqqan. Masalan, “Adibi avval”, “Alifbo” darsligi (1907), “Adibi soniy” (1907), “O'qish kitobi”, “Yer yuzi” (1908), 3–4-sinflar uchun “Geografiya” darsligi, “Havoyiji diniya”, “Til saboqlari” (1925), “Tajvid” – Qur'oni karimni o'qish qoidalari hamda “Sabzazor” adabiy to'plami va boshqa shu kabi asarlar. Bu darslik va qo'llanmalar bir necha marotaba qayta chop etilib, o'lkada keng tarqalgan.

Biroq bu jarayon oson kechmagan. Munavvarqori va umuman jadidlar ikki qarama-qarshi ijtimoiy-siyosiy kuch bilan to'qnash kelganlar: birinchisi, mustamlakachilik siyosati, ikkinchisi esa ayni siyosatni qo'llab-quvvatlagan mahalliy ulamolar va ziyolilar orasidagi jaholatparastlik edi. Aslida, Munavvarqori va boshqa jadidlar islomning sof, ma'rifat va ilm-fan dini ekanligini himoya qilib, ochiq tanqidiy fikrlar bilan jadid matbuotida maqolalar e'lon qilganlar.



Masalan, Munavvarqori 1906-yil 14-iyun kuni “Taraqqiy” gazetasida e’lon qilgan “Bizning jaholat – jahli murakkab” nomli maqolasida shunday yozadi: “Ko’p dindoshlarimizni ko’ramizki, o’z farzandlarini aslo maktabga bermay, ... dunyo va oxirat saodati bo’lgan ilm va ma’rifatdan mahrum qilmoqdan hech bir ibo qilmaslar” [6].

Munavvarqori Abdurashidxonov Turkistondagi milliy matbuotning peshqadamlaridan biri bo’lgan. U “Hurshid”, “Najot”, “Taraqqiy”, “Sadoi Turkiston”, “Shuhrat” kabi gazeta va jurnallarda faol qatnashgan. Uning maqolalarida milliy uyg’onish, ta’lim-tarbiya, jamiyatdagi islohotlar, xotin-qizlar erkinligi masalalari ilgari surilgan [7. 41-b.]. Ma’rifatparvar publitsistikani u “xalqni uyg’otuvchi kuch” deb baholagan. Uning yozgan har bir maqolasi dolzarb muammolarni ko’tarib chiqqan, xalqni mulohaza qilishga chorlagan. Ayniqsa, “Bizning jaholat – jahli murakkab” nomli chiqishlari katta rezonans uyg’otgan.

Mazkur maqolada Munavvarqori “Har millatning maktabi”, “Har millat avlodini tarbiyalash” degan iboralar bilan boshlab, “Ey qardoshlar, voy millatdoshlar!!!” deb to’g’ridan-to’g’ri millatga murojaat qiladi. U matbuotni millatni uyg’otishdagi muhim vosita sifatida baholagan [8. 145-b.].

1917-yilgi Fevral inqilobidan so’ng Munavvarqori siyosiy hayotda faol ishtirok eta boshlagan. U “Sho’roi Ulamo” tashkilotiga asos solgan va Turkiston muxtoriyati g’oyasini yoqlab chiqqan. Uning fikricha, Turkiston o’z taqdirini o’zi belgilashi, o’z tilida ta’lim va matbuot yuritishi, iqtisodiy va madaniy jihatdan erkin bo’lishi kerak edi. Munavvarqori muxtoriyat hukumati tashkil etilganida o’z yordamini ayamagani, Ismoil G’aspirali, Mahmudxo’ja Behbudiy, Fayzulla Xo’jayev kabi jadidlar bilan hamkorlik qilgani haqida tarixiy manbalar guvohlik beradi. U mustamlaka tuzumiga qarshi dadil chiqib, milliy ozodlik kurashi uchun faol harakat qilgan.

Biroq sovet hokimiyatining mustahkamlanishi bilan milliy harakatlar siquvga olinadi. Munavvarqori 1929-yilda “kontrevolyutsion millatchi” degan ayblov bilan hibsga olinadi. Tergovlar davomida unga “diniy reaksiyon guruh” tuzgan, “davlat tuzumiga qarshi chiqqan” degan yolg’on ayblovlar qo’yiladi [4. 63-b.]. Qattiq tergov va qiy-noqlardan so’ng, 1931-yilda Moskva yaqinida otib o’ldiriladi. Munavvarqori o’z e’tiqodidan va millatiga bo’lgan sadoqatidan hech qachon qaytmagan. Uning qatl etilishi o’zbek jadidchiligiga berilgan eng og’ir zarbalardan biridir.

Mustaqil O’zbekiston hukumatining tashabbusi bilan Munavvarqori haqidagi tarixiy adolat tiklandi. Uning muborak nomi ko’chalar, maktablar va ilmiy-tadqiqot markazlariga berildi. Buyuk ma’rifatparvar faoliyati haqida ilmiy tadqiqotlar olib borildi va davom etmoqda, monografiyalar, risolalar e’lon qilindi va qilinmoqda. Adibning qator asarlari, maqolalari, qo’llanmalari o’zbek tilida nashr etildi. Xususan, 2001-yilda “Xotiralarimdan” asari nashrdan chiqdi. 2003-yilda taniqli olim, san’atshunoslik fanlari nomzodi Sirojiddin Ahmedov Munavvarqori Abdurashidxonovning “Tanlangan asarlari”ni chop ettirdi. Nihoyat, 2019-yilda Sirojiddin Ahmedov tomonidan asarlarning ikkinchi, to’ldirilgan nashri amalga oshirildi.

2020-yil 30-sentabrda O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev farmoni bilan tarixdagi beqiyos xizmatlari hisobga olinib, Munavvarqori Abdurashidxonov “Buyuk xizmatlari uchun” ordeni bilan mukofotlandi.

Bugungi kunda Munavvarqori Abdurashidxonov – o’zbek pedagogikasi, jadidchilik harakati, milliy uyg’onish va mustaqillik g’oyalari tarixida o’chmas iz qoldirgan siymo sifatida baholanmoqda [2. 19–20-b.].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa o’rnida ta’kidlash joizki, Munavvarqori Abdurashidxonov – o’z davrining yetuk ziyolisi, jadidchilik harakatining peshqadamlaridan biri, millatning ma’naviy uyg’onishini bosh maqsad qilib olgan fidoyi ma’rifatparvardir. Uning yozgan darsliklari, maqolalari, tashkil qilgan maktablari hamda ilgari surgan g’oyalari bugungi kunda ham o’z dolzarbligini yo’qotmagan.

Munavvarqori yaratgan ilmiy-ma’rifiy meros – bu xalqni o’z milliy o’zligini anglash, erkinlik va taraqqiyot sari yo’naltirishga xizmat qiladigan bebaho boylikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Qori-Niyoziy. Jadidlar yo’li. – Toshkent: O’qituvchi, 1990.
2. Jadidlar. Munavvarqori Abdurashidxonov. – Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi, 2022. – 152 b.
3. Ismoilov Sh. Jadidchilik va taraqqiyot. – Toshkent: Sharq, 2015.
4. Abduqodirov H. O’zbek ma’rifatparvarlari. – Toshkent: Ma’naviyat, 2001.
5. Qosimov B. Milliy uyg’onish: jasorat, ma’rifat, fidoyilik. – Toshkent: Ma’naviyat, 2002.
6. Abdurashidxonov M. Xotiralarimdan (Jadidchilik tarixidagi lavhalar). – Toshkent: Sharq, 2001.
7. Karimov B. Sovet davri qatag’onlari. – Toshkent: Adabiyot, 2002.
8. Abdurashidxonov M. Tanlangan asarlar. Nashrga tayyorlovchi: S. Ahmedov. – Toshkent: Ma’naviyat, 2003.
9. Erkinov A. Islom va modernizm: Turkistonda diniy tafakkur. – Toshkent: Adabiyot, 2018.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzirimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.